

# O'zbekistonda Suvdan Foydalanuvchilar Uyushmalarining Tashkil Qilinishi Va Faoliyatida Yuzaga Kelayotgan Muammolari («Suv Resurslarini Mukammal Boshqarish -Farg'ona» Loyihasi Misolida)

*Sharofiddin Shukurjon Ogli Shomurotov<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Maqolada Farg'ona viloyatida amalga oshirilgan islohotlar va suvdan foydalanuvchilar uyushmalari faoliyatini tashkil etilishi, SFUning xo'jaliklararo suv taqsimotida ishtirokini kanallar darajasidagi boshqaruv organlarining faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishi, Farg'ona vodiysida tashkil qilingan SFU larida texnika va asbob-uskunalar ta'minotini tahlil qilish masalalari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** loyiha, suv resurslari, suv ta'minoti, suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, sug'orish tarmoqlari, suv xo'jaligi ob'ektlari, zovur-zaxkash tizimi, meliorativ muammolar.

2001 yilning sentyabr oyidan boshlab Farg'ona vodiysida Shveysariyaning xalqaro rivojlantirish va hamkorlik agentligining (SDS) moliyaviy yordami bilan «Farg'ona vodiysida suv resurslarini mukammal boshqarish» («SRMB-Farg'ona») loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyihani amalga oshirish vazifasi «Xalqaro suv resurslarini boshqarish instituti - Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasining ilmiy-axborot markazi uyushmasiga yuklatilgan.

Loyihani amalga oshirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Qirg'iziston Respublikasi Qishloq, suv xo'jaligi va qayta ishlash sanoati vazirligi, Tojikiston Respublikasi melioratsiya va suv resurslari vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Loyiha ob'ektlari Farg'ona vodiysidagi magistral kanallar: Janubiy Farg'ona (JFK), Aravan-Aktura (AAK), Xo'ja-Bakirgan (XBK) kanallari hisoblanadi. Hozirgi kunda loyihaning uchinchi bosqichi amalga oshirilmoqda.

«SRMB-Farg'ona» loyihasing yakuniy maqsadi-loyihada faol ishtirok etayotgan respublikalar, xususan Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarining qishloq joylaridagi tuzilmalarni qayta qurish orqali aholining turmush darajasini va atrof-muhitni yaxshilashga, ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shishdan iborat. Ushbu tuzilmaviy o'zgartirishlar Farg'ona vodiysida suv resurslarini mukammal boshqarishni joriy qilish va dastlabki sinovlardan o'tkazish hamda suv resurslarini boshqarish faoliyatiga suvdan foydalanuvchilarni jalb etish masalalarini qamrab oladi.

Loyihaning maqsadi suv taqsimotining barqaror, bir tekis va samarali bo'lishi tamoyillari asosida tizimlarda (kanallarda) va SFUda suv taqsimotini boshqarish sifatini oshirishdan iboratdir. Ushbu maqsadga tashkiliy, texnik, texnologik va salohiyatni oshirish aspektlarini o'z ichiga olgan faoliyat yuritish yo'li bilan erishiladi. Mazkur ishimiz pilot ob'ektlarda suvni boshqarish sifatiga baho berish va uning monitoringini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

Xo'jaliklarda suvdan foydalanish bo'yicha ichki tarmoqlar tuzilmalarini qayta qurish zarurati shunga bog'liqqi, keyingi yillarda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ilgarigi yirik xo'jaliklar-kolxoz va sovxozlarning tugatilishi va ularning o'rniga mayda fermer va dehqon xo'jaliklarining tashkil qilinishiga olib keldi.

Yirik jamoa xo'jaliklari avvalgi davrlarda ichki xo'jalik tarmoqlaridan foydalanishni boshqarishning shakllangan tuzilmalariga ega edilar, hozirgi yangi sharoitlarda esa fermer va dehqon xo'jaliklari suv taqsimoti, o'zlarining irrigatsiya-melioratsiya tizimlarini ta'mirlash va ta'minlash muammolariga duch kelmoqdalar.

Yaqin va uzoq xorijdagi ko'pchilik davlatlar ham o'z davrida shunday muammolarni boshdan kechirganlar. Ularni hal qilish uchun xo'jalik ichida suvdan foydalanishni tashkil qilishning turli shakllari amalda sinab ko'rilgan: davlat tuzilmalari, mahalliy ma'muriyat, aksionerlik va kooperativ jamiyatlari orqali amalga oshirilmoqda.

Bularning ichida eng maqbul va har qanday sharoitlarga moslashgan shakli xo'jalik ichida suvdan foydalanishni suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) orqali tashkil qilish ekanligi ma'lum bo'ldi. Keng ma'noda SFU o'zlarining moliyaviy va moddiy-texnik resurslarini birlashtirib, o'zlarining irrigatsiya-melioratsiya tizimidan foydalanishni tashkil qiladigan suvdan foydalanuvchilar guruhini birlashtiradi.

Markaziy Osiyoda sug'oriladigan yerlardagi dehqonchilikning hozirgi ahvoli quyidagi muammolarni hal qilishni taqazo etadi:

<sup>1</sup> Kokand state pedagogical institute, Kokand, Uzbekistan

- barcha davlatlarda yer davlat mulki hisoblanadi va uni yerdan foydalanuvchilarga berish ijara yoki pay asosida amalga oshiriladi;
- agrar sohani xususiyashtirishning va qonuniy bazaning davlat tomonidan tartibga solinishi darajasi har xil;
- suv ta'minotini ko'paytirish, doimiy ravishda suv berilib turishi, hududiy jihatdan sug'orish manbasidan turli uzoqlikda joylashgan suvdan foydalanuvchilar orasida tanqis suv resurslarini taqsimlash zarurati mavjud;
- xo'jaliklar ichidagi sug'orish va drenaj tizimlarini ta'mirlash-qayta tiklash ishlarini amalga oshirish zarur, chunki keyingi yillarda xo'jaliklardagi og'ir iqtisodiy sharoitlar tufayli bu masalalarga e'tibor ancha susayib ketdi.

Ta'kidlab o'tilgan muammolarni SFU tashkil qilinishi va faoliyati jarayonlari davomida hal qilish mumkin, chunki bu tuzilma xo'jalik ichidagi sug'orish va drenaj tizimlaridagi suv xo'jaligi holatini yaxshilaydi va sug'oriladigan yerlardagi dehqonchilikda foydalaniladigan yer-suv resurslarining unumdorligini oshirishning eng kuchli omillaridan biri hisoblanadi.

Suv resurslarini mukammal boshqarishda SFU ni tashkil qilish gidrografik tamoyil asosida, ya'ni SFU ni magistral kanallar tarmoqlari (ikkinchi va undan keyingi tartibdagi) atrofida tashkil qilish nazarda tutiladi. SFU ni bunday tashkil qilish mavjud suv resurslarini samarali boshqarishga, turli darajadagi kanallarni suv bilan ta'minlashni muvofiqlashtirishga, kanallarda ishlab chiqarishga oid bo'lmagan isrofgarchilikni qisqartirishga yordam beradi.

SFUni tashkil qilishda suvdan foydalanuvchilar, suv xo'jaligi tashkiloti (SXT), mahalliy ma'muriyat vakillari, atrof-muhit ekologiyasiga bog'liq nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat tashkil qilinayotgan tashabbus guruhi yordamida suvdan foydalanuvchilarning ijtimoiy safarbarligini nazarda tutish lozim. Bu guruh suvdan foydalanuvchilarga mavjud muammolarni va ularni SFU yordamida muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyatlarini, shuningdek, SFU tashkil qilinishi va faoliyati natijasida barcha manfaatdor tomonlar qo'lga kiritgan foydalarni namoyon etib berishi lozim.

SFUni tashkil qilishning muhim sharti shundan iboratki, u notijorat tashkiloti sifatida tuziladi.

SFUni tashkil qilishda unga xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlari vazifasini bajaradigan va tegishli Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari tuzilmalari tomonidan moliyalashtiriladigan ikkinchi tartibdagi kanallarni berish shartini nazarda tutish lozim. Bu masalani ikki variantda hal qilish mumkin.

**Birinchi variant.** Ko'rsatilgan suv xo'jaligi ob'ektlari suvdan foydalanuvchilarning iqtisodiy ahvolini mustahkamlash uchun yetarli bo'lgan (asosan SFU ta'minlashi lozim bo'lgan suv-meliorativ omillari hisobidan) muddatga, ya'ni SFU tashkil qilingan vaqtdan boshlab besh yil davomida foydalanish uchun shartnoma asosida vaqtincha beriladi va har yili ushbu ob'ektlarni saqlash va foydalanish uchun xarajatlar o'tkazilib turiladi.

Suv xo'jaligi ob'ektlarini muvaqqat yoki doimiy foydalanishga topshirish O'zbekiston Respublikasi («Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunning 31-moddasi), Tojikiston Respublikasi (Suv kodeksining 35-moddasi) qonunchiligida nazarda tutilgan.

**Ikkinchi variant.** Davlat suv xo'jaligi tashkiloti SFU tashkilotchilaridan biri hisoblanadi. Uning ulushi-SFUGa beriladigan suv xo'jaligi ob'ektlari hisoblanadi. Ayni paytda, suv xo'jaligi tashkiloti tashkilotchi sifatida SFUGa berilgan ob'ektlarni me'yoriy ehtiyojlar doirasida saqlash va foydalanishni moliyalashtirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Variantlarni suvdan foydalanuvchilar va Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari tuzilmalarining vakolatli lavozimli shaxslari tanlab olishadi.

SFU faoliyatining predmeti quyidagilardan iborat:

#### **I. Suvdan foydalanishni tashkil qilish:**

- ✓ SFU ga a'zo xo'jaliklar doirasida xizmat ko'rsatiladigan maydonda suvdan foydalanish rejasini ishlab chiqish va uni suv olish va undan foydalanish bo'yicha SFU bilan shartnoma tuzgan davlat suv xo'jaligi tashkilotiga taqdim etish;
- ✓ Suvni SFU ning hamma a'zolari orasida suvdan foydalanish rejasida belgilangan hajmlarda va muddatlarda teng taqsimlash;
- ✓ Sug'orish kanallarida ham, zovur-zaxkash tarmoqlarida ham suv o'lchagich uskunalarning to'g'ri ishlashini nazorat qilish;
- ✓ Sug'orish kanallari va ularning shoxobchalarida suv ta'minotining va SFU tasarrufidagi zovur-zaxkash tarmoqlarida suv qochirishning hisob-kitobini amalga oshirish.

#### **II. Ta'mirlash-foydalanish ishlarini tashkil qilish:**

- Biznes-reja ishlab chiqish;
- ichki xo'jalik sug'orish kanallarini va SFU tasarrufidagi zovur-zaxkashlarni texnik jihatdan ishga yaroqli holda saqlash va ulardan foydalanish;
- ichki xo'jalik sug'orish kanallarida va zovur-zaxkashlarda ta'mirlash-qayta tiklash ishlarini amalga oshirish.

### III. Melioratsiya xizmatlari ko'rsatish, suv qochirish.

SFU davlat, xo'jalik va jamoa tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarda o'z a'zolarining manfaatlarini ko'zlab ish tutadi va huquqlarini himoya qiladi, bir tomondan, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan, ikkinchi tomondan, SFU bilan uning a'zolari hisoblangan va a'zo unga bo'lmagan suvdan foydalanuvchilar orasida iqtisodiy va tezkor o'zaro munosabatlarni amalga oshiradi.

SFU faoliyatini rasmiylashtirish asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Odatda rasmiylashtirish deganda iqtisodiy, moliyaviy, yuridik va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish huquqini olish nazarda tutiladi. Tojikistonda bu masala mahalliy hokimiyat organlari-hukumat darajasida hal qilinadi.

SFUning irrigatsiya va zovur-zaxkash tizimini tasarruf etish huquqi uning faoliyatidagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. MO (Markaziy Osiyo) davlatlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida SFUning irrigatsiya tizimini tasarruf qilish huquqi aniq tushuntirib berilmagan. Ichki xo'jalik suv ob'ektlariga egalik qilish huquqiga nisbatan noaniqliklar mavjud.

SFUni tashkil qilish va faoliyatini yuritish muammolari Farg'ona vohasidagi uchta davlatda (O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston) aniqlandi va Shveysariya rivojlantirish va hamkorlik agentligi moliyalashtirayotgan «SRMB-Farg'ona» loyihasi doirasida tuzilayotgan SFU misolida hal qilinmoqda.

Tashkil qilingan har bir SFUda quyidagi amaliy tadbirlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan:

- ✓ sug'orish kanallari va zovur-zaxkash tizimlari ilgari egalari balansidan chiqarilib, SFUga topshirildi;
- ✓ o'sish davrida ikkinchi tartibdagi sug'orish kanallarida suvdan foydalanish rejaları tuzildi;
- ✓ har bir suvdan foydalanuvchi bilan shartnoma tuzilib, unda suvdan foydalanuvchilar to'laydigan joriy badallar miqdori, beriladigan suv hajmi va muddatlari va boshqa xizmat turlari nazarda tutilgan;
- ✓ ikkinchi tartibdagi har bir sug'orish kanali bo'yicha suv berish grafigi ishlab chiqildi va tuzildi;
- ✓ SFU yillik byudjeti tuzildi;
- ✓ irrigatsiya-meliorativ tarmoqlari va ulardagi inshootlarning texnik holatini tekshirish amalga oshirildi;
- ✓ o'sish davri oralig'ida suvdan foydalanish rejasi tuzildi;
- ✓ sug'orish va zovur-zaxkash tizimlarini nazorat qilish nazarda tutilgan;
- ✓ yil oxirida joriy yil natijalari chiqariladi, kelasi yil uchun ish rejasi tuziladi va u SFU umumiy majlisida muhokama qilinadi.

Farg'ona vodiysida tashkil qilingan SFU larida texnika va asbob-uskunalar ta'minotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mavjud SFU larning hech biri zarur maxsus texnika va ta'mirlash uskunalar bilan ta'minlanmagan.

Bu muammoni quyidagi yo'l bilan hal qilish mumkin:

- uyushmalararo mashina parki (UMP)ni tashkil qilish. Buning uchun uni tashkillashtirish mexanizmini ishlab chiqish zarur;
- SFU ning ba'zi doimiy ishlatiladigan texnikani turli manbalar hisobidan sotib olishi-imtiyozli kreditlar, tugatilayotgan yirik xo'jaliklar texnikasini SFUga berish, SFUda tuziladigan rezerv fondlar hisobidan sotib olish va hokazo.

Farg'ona vodiysidagi SFU larida kadrlar ta'minotining tahlili shuni ko'rsatadiki, tashkil qilingan SFUda oliy va maxsus ma'lumotli mutaxassislar soni juda kam. Ularni jalb qilish va ish bilan ta'minlash uchun SFUda jozibali sharoitlar yaratish zarur, xususan:

- ✓ SFU xodimlariga kanallar bo'ylaridagi yerlardan foydalanish va noqulay yerlarni o'zlashtirish hisobidan katta ko'lamli uchastkalarga ega bo'lish imkoniyatini yaratib berish;
- ✓ SFU xodimlari uchun fermerlar daromadlaridan olinadigan ajratmalar hisobidan mukofot fondini tuzish va SFU mutaxassislarini muayyan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari uchun shu mablag'lar hisobidan rag'batlantirish;
- ✓ o'quv yurtlarida, viloyatlardagi trening markazlarida SFU faoliyatining turli qirralarini yoritib beradigan kurslar tashkil qilishni nazarda tutish.

Hozirgi kunda suv xo'jaligi tashkilotlari, odatda, SFU tashkilotchilari tarkibiga kirmaydi. Farg'ona vodiysida SFU tashkil qilish amaliyati suv xo'jaligi tashkilotining (SXT) hamkor-tashkilotchi sifatida ishtirok etishi maqsadga muvofiq ekanligini namoyon etdi. Bu SFU uchun ham, SXT ham uchun foydalidir: SFU, bir tomondan, ikkinchi tartibdagi kanallardan suvdan foydalanuvchilar kanallarining tarmoqlarigacha to'la gidrografik ta'minotga ega bo'ladi va xo'jaliklararo kanalning bir qismidan foydalanish xarajatlari SXT hisobidan qoplanadi. SXT xo'jaliklararo kanallarni nazorat qilish va ta'mirlash ishlarini SFUga topshiradi.

Meliorativ muammolar mavjud bo'lgan SFUda maxsus melioratsiya xizmatini tashkil qilish zarur. Uning faoliyati melioratsiya jarayoni ishtirokchilarining tartibga solingan ishlariga bog'liq; suvdan foydalanuvchilar, SFU va gidrologiya-melioratsiya ekspeditsiyasi (yoki SXTning boshqa xo'jaliklararo tuzilmasi).

Xo'jaliklararo suv taqsimotining hozirgi amaliyoti bu jarayonda o'z a'zolarining manfaatlarini ko'zlagan holda SFU ishtirokini nazarda tutmagan. SFUning xo'jaliklararo suv taqsimotida ishtirokini kanallar darajasidagi boshqaruv organlarining faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirish lozim («Suv to'g'risida»gi qonunlar, SXT nizomlari va Rejalari va h.)

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida suv bilan ta'minlash va suv resurslarini muhofaza qilish masalalari nafaqat millat darajasidagi muammo, balki u ko'pincha Markaziy Osiyo respublikalari siyosatiga bog'lik masala bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyo respublikalari qiziquvisiz roziligisiz xududda, shu jumladan, O'zbekistonda umumiy ekologik sog'lamlashtirish muammosini yechish mumkin emas.

Millat darajasida aholini zaruriy suv bilan ta'minlash nuqtai nazaridan suv ekotizimini muhofaza etish buyicha huquqiy asoslarining mavjudligiga va mukammalligiga, Markaziy Osiyo davlatlarining bu muxim muammoning ahamiyatligini tan olishga qaramasdan bu muammo haliyam o'z yechimini topmadi. Asta-sekin suv ekotizimi holatining yomonlashayotganligi kuzatilmoqdaki, natijada bu hududda ijtimoiy- iqtisodiy tanglikni yuzaga keltirmokda.

Suv ekotizimi ifloslanishi bilan bog'lik bo'lgan noqulay ekologik muhitni yaxshilash uchun xudud va millat darajasida ko'pgina qarorlar qabul qilinishi zarur, o'larning asosiy tamoyillari quydagilardir:

1. Mavjud xalkaro xujjatlar darajasida Markaziy Osiyo respublikalaridagi barcha ekologik ob'ektlarni suv bilan ta'minlashning uzoq muddatli va kelishilgan strategiyasini ishlab chiqish.
2. Ekologik ob'ektlarni suv bilan ta'minlashni kafolatlaydigan «Amudaryo» va «Sirdaryo» tizimlarining vakolatlarini va huquklarini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Farg'ona kanali bo'ylab yangidan tuzilgan SFU ning ikkinchi tartibdagi ichki xo'jalik kanallarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ularning hammasi bosh qismida standart suv o'lchash vositalari bilan jihozlangan. Undan pastda joylashgan fermer xo'jaliklari tarmoqlari taxminan 25-30% atrofida suv o'lchash vositalari bilan jihozlangan. Suv o'lchash qurilmalari bilan jihozlanishning bunday ahvoli O'zbekistondagi deyarli barcha SFU dagi ichki xo'jalik tarmoqlarida kuzatiladi.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'rta Osiyo va kavkaz davlatlarida suv zahiralari mukammal boshqarish asoslari, GVP SAK, 2004 yil, Toshkent.
2. МВИ 33-4755559-09-91. «Каналы гидромелиоративные железобетонные параболические». Методика выполнения измерений расхода методом «скорость x площадь».
3. МИ 2122-90. «Государственная система обеспечения единства измерений. Расход жидкости в открытых потоках. Методика выполнения измерений при помощи стандартных водосливов и лотков».
4. Макаров О.С. Вопросы водоучета в странах ЦАР. — Ташкент: Тренинговый центр НИЦ МКВК. — 2002 г.
5. Shomurotov, S. S. O. (2021). The Need for Formation of Knowledge on the Effective Use of Water Resources in Young People in the Process of Globalization.(in the Example of the Aral Sea). *International Journal of Human Computing Studies*, 3(2), 89-91.
6. SHOMUROTOV, S. S. O. (2021, April). FIRST STEPS FOR MODERNIZATION OF WATER FARMING IN THE REPUBLIC: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 4, No. 1, pp. 152-155).
7. Shomurotov, S. S. O. (2021, February). Some Environmental Problems Related To Land And Water Resources In Uzbekistan. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 39-41).
8. SHOMUROTOV, S. S. O. Construction and Changes in Canals and Pumping Stations in Uzbekistan. *JournalNX*, 7(1), 262-266.
9. Шомуротов, Ш. (2021). Историческое значение реформ, осуществляемых в водной системе Узбекистана. *Общество и инновации*, 2(3/S), 458-465.
10. Шомуротов, Ш. (2021). Ўзбекистон сув хўжалиги тизимида амалга оширилган ислохотларнинг тарихий ахамияти. *Общество и инновации*, 2(3/S), 458-465.
11. Sarvarbek, Z. (2022). THE STRUCTURE OF THE CONCEPT OF HAPPINESS IN METALINGUISTIC COVERAGE ON THE EXAMPLE OF THE PERCEPTION OF SCHOOLCHILDREN. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 444-446.
12. Obidovich, N. F., Qodiraliyevich, A. N., & Valijon o'g'li, M. T. (2021). E-LEARNING ENVIRONMENT TO PREPARE FUTURE TEACHERS OF COMPUTER SCIENCE IN PEDAGOGICAL ISSUES. *E-LEARNING*, 8(4).
13. Нажмиддинов, Ф. О., & Абдуллаев, Н. К. (2020). ИСТОРИЯ СИМПЛЕКС-МЕТОДА. *Интернаука*, (13-1), 6-8.

14. Исамитдинов, С. С., & Нажмиддинов, Ф. О. (2017). ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УЧРЕЖДЕНИЯХ СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Ученый XXI века*, 82.
15. Kobilova, E., Sobirova, O., & Najmiddinov, F. (2021). The importance of music education in the formation of musical culture and spirituality. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 698-703.
16. Исамитдинов, С. С., & Нажмиддинов, Ф. О. (2016). Дидактик ўйинлар тахлили. Молодой ученый, (3-1), 7-8.
17. Abdurasulov, A. A. (2020). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL FEATURES OF CORPORATE GOVERNANCE IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF ADVANCED FOREIGN COUNTRIES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(9), 298-303.
18. Abdukarimovich, A. A. (2022). CORPORATE PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF EFFECTIVENESS OF HIGHER EDUCATION MANAGEMENT: Abdurasulov Abdullajon Abdukarimovich. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(2), 80-85.
19. Abdukarimovich, A. A. (2022). Content of the corporate governance system, foreign experience and efficiency of its implementation. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 240-244.
20. Abdukarimovich, A. A. (2021). Problems of Power and Administrative Governance in Higher Education of Uzbekistan and the Need for Modernization of the Governance System. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
21. Abdukarimovich, A. A. (2022). THE EFFECTIVENESS OF THE IMPLEMENTATION OF THE CORPORATE GOVERNANCE SYSTEM IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(3), 120-125.
22. Abdukarimovich, A. A. (2020). METHODS OF MANAGING EMPLOYEES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF CORPORATIVE CULTURE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.*, 8(11).